IJTIMOIY VA MA’NAVIY JARAYONLARNING KADRLAR SALOHIYATIGA O‘ZARO TA’SIRI

Isaxova Shaxlo Muxtarovna
Guliston davlat pedagogika instituti “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy va ma’naviy jarayonlarning kadrlar salohiyatiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Jamiyatdagi ijtimoiy muhit, ta’lim tizimi, qadriyatlar tizimi va ma’naviy omillarning inson kapitalini shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, kadrlar salohiyatining jamiyat taraqqiyotiga aks ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy jarayonlar, ma’naviy muhit, kadrlar salohiyati, inson kapitali, ta’lim, qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyot.

Globallashuv va jadallashib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida kadrlar salohiyati har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanmoqda. Kadrlar sifati esa bevosita ijtimoiy va ma’naviy jarayonlar bilan belgilanadi. Shu bois, quyida ikki ya’ni ijtimoiy-ma’naviy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asosda o‘rganish va tahlil qilish talab etadi.

Ijtimoiy jarayonlarning kadrlar salohiyatiga ta’sirini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, uni mohiyati oydinlashadi. Ijtimoiy jarayonlar deganda jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, ta’limiy va madaniy o‘zgarishlar tushuniladi. Ushbu omillar kadrlar tayyorlash tizimining sifatini belgilaydi.

Birinchidan, ta’lim tizimidagi islohotlar yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Zamonaviy bilim va kompetensiyalarni egallagan kadrlar jamiyat ehtiyojlariga moslashadi. Shuningdek har davrda jamiyat sohalari rivojiga o‘zlarining ilmiy va kasbiy salohiyati bilan hizmat qiladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar mavjudligi yoshlarning intellektual rivojlanishini rag‘batlantiradi. Aks holda, ijtimoiy tengsizlik kadrlar salohiyatining pasayishiga olib keladi. Kadrlar salohiyatining pasayishi ish faoliyat samaradorligining pasayishiga va kadrlar tayinlovida korrupsiyani kuchayishiga olib keladi.[1][1]

Uchinchidan, innovatsion muhit va raqobat kadrlarning kasbiy o‘sishini tezlashtiradi. Har bir kadrni o‘z sohasi bo‘yicha bilim va mahoratda bir qadam oldinda bo‘lishini talab etadi.

Ma’naviy jarayonlarning kadrlar shakllanishidagi o‘rnini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, uni mazmuni anglashiladi. Ma’naviy jarayonlar insonning ichki dunyosi, qadriyatlari va axloqiy tamoyillarini ifodalaydi. Bu omil kadrlarning sifat jihatdan mukammalligini ta’minlaydi. Ma’naviy yetuklik:

Mas’uliyat hissini kuchaytiradi;
kasbiy etikani shakllantiradi;
jamiyat oldidagi burchni anglashga yordam beradi.

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi “O’zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida” gi PQ-4761-sonli qarorining maqsadi. https://lex.uz/docs/-4875782.

Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy muhit korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantiradi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Kadrlar tayinlovida inson qadri va salohiyatini har qanaqa shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yilishi, o‘z kasbiga sadoqatli, ilmli mutaxassislarni yuzaga chiqishiga erishiladi.

Ijtimoiy va ma’naviy jarayonlar bilan kadrlar salohiyati o‘rtasida juda kuchli va ikki tomonlama bog‘liqlik mavjud. Bu aloqada, jamiyatning “ruhiy va ijtimoiy muhiti” qanday bo‘lsa, unda shakllanadigan kadrlar ham shunga mos bo‘ladi va aksincha, sifatli kadrlar jamiyatni o‘zgartiradi. Ijtimoiy va ma’naviy jarayonlarga ichki omil va tashqi muhitni ta’sirini tahlil qilish muhim sanaladi.

Ijtimoiy jarayonlarning ta’siri (tashqi muhit).

Jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, ta’limiy va madaniy jarayonlar kadrlarning shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Ta’lim tizimidagi islohotlar qanchalik davr talabi hamda halqaro tajriba bilan hamoxang bo‘lsa, bilimli va zamonaviy kadrlar paydo bo‘ladi. Ijtimoiy adolat va imkoniyatlar yuqori darajada bo‘ladigan bo‘lsa, yoshlarning motivatsiyasini shunchalik oshiradi. Ijtimoiy muhit (raqobat, innovatsiya) keng doirada bo‘ladigan bo‘lsa, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Yuqori ma’lumotga ega kadrlar orasidagi kasbiy, malaka, bilim va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha raqobat, tashkilotlarda salohiyatli kadrlar guruhini to‘planishiga asos bo‘ladi. Agar ijtimoiy muhit sust yoki adolatsiz bo‘lsa, bu kadrlar sifatining pasayishiga olib keladi.

Ma’naviy jarayonlarning ta’siri (ichki omil).

Ma’naviyat – bu insonning qadriyatlari, axloqi, dunyoqarashi. Bu kadrlarning nafaqat bilimli, balki halol, mas’uliyatli va vatanparvar bo‘lishini ta’minlaydi. Birinchi Prezident I. A. Karimov: “Aslini olganda, axloq- ma’naviyatning o‘zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomalalikdangina iborat emas, axloq- bu, avvalo, insof va adolat tuyg‘usi, imon, halollik degani”[2][1], deb ta’kidlaganlar.

Kadrlarni kasbiy mehnat jarayonida axloqiy qadriyatlar va me’yorlarni to‘la to‘kis bajarilishi korrupsiyaning kamayishi olib keladi. Bu esa jamiyat sohalarini barqaror rivojlanishiga turtki boladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mavjud ekan, bu qadriyatlarni anglagan kadrlarda jamoaga sodiqlik fazilati, komillik darajasi yuqori bo‘ladi. “Inson kamoloti o‘z ustida tinmay ishlash, axloqiy poklik va ijtimoiy faollik asosida shakllanadi”[3][2]. Bu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘z sohasi bo‘yicha ortirilgan bilim va ijtimoiy faollik kadrlar kamolotini belgilaydi. Kadrlarda ma’naviy yetuklik o‘z sohasi bo‘yicha egallagan bilimlari, shakllangan ko‘nikmalari orqali belgilanadi. Ma’naviy yetuklik kadrlarning to‘g‘ri qaror qabul qilishini oshiradi.

Kadrlar salohiyatining ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga aks ta’siri har bir davrda muhim masala bo‘lib kelgan. Kadrlar salohiyatining aks ta’siri davlat va jamiyat sohalari rivojida ko‘rinadi. Kadrlar salohiyati nafaqat natija, balki muhim harakatlantiruvchi kuch hamdir. Jamiyat sohalarining rivoji jarayon sifatida bir tomonlama emas. Davlat va tashkilotlarda kuchli kadrlarni mavjudligi qiyidagi ijobiy aks ta’sirini beradi. Bu ijobiy aks ta’sir:

Jamiyatda ijobiy ijtimoiy muhit yaratadi;

islohotlarni amalga oshiradi;

jamiyatda innovatsiyalarni joriy etadi;

ijtimoiy institutlarni rivojlantiradi;

ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qiladi va mustahkamlaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni amaldagi natijasini kuzatadigan bo‘lsak, ijtimoiy va ma’naviy jarayonlar yangi bosqichga ko‘tariladi.

Xulosa qilib aytganda ijtimoiy va ma’naviy jarayonlar kadrlar salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Ijtimoiy va ma’naviy jarayonlar kadrlar salohiyatini shakllantiradi, rivojlantiradi va yo‘naltiradi. Shu bilan birga, yuqori salohiyatli kadrlar jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlaydi. Ya’ni, ular o‘zaro chambarchas bog‘liq tizim bo‘lib, biri ikkinchisini kuchaytiradi yoki aksincha, zaiflashtiradi.Ularning uyg‘unligi yuqori sifatli inson kapitalini vujudga keltiradi. Shu bilan birga, rivojlangan kadrlar salohiyati jamiyatning ijtimoiy va

[1] I.A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. –T: “O‘zbekiston”, 1996, -B. 39.
[2] Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. - Toshkent: Yangi asr avlodi. 1998. –B. 35.

ma’naviy taraqqiyotini ta’minlaydi. Demak, bu jarayonlar o‘zaro dialektik bog‘liqlikda bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi va rivojlantiradi.